

**UMUMTA'LIM MAKtablARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA  
SHAXOBCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA  
PEDAGOGIK TAVSIYALAR**

Islomova Ozoda Sayfiddinovna  
Jizzax Davlat Pedagogika Instiuti  
Maxsus pedagogika kafedrasи  
Stajior-o'qituvchi  
**islomovaozoda956@gmail.com**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lismaktablari qoshidagi logopediya shaxobchalarini ishini takomillashtirish uchun logopedik ish jarayonida qo'llanilib samaradorlikka erishilgan pedagogik tavsiyalarni amlada o'qituvchi logopedlar, o'qituvchilar, defektologlar o'z faoliyatlarida qo'llaganda kutilgan kutilgan natijalarga erishilishi va hamda ota-onalarning hamkorlikdagi ishlari samaradorligi haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** logopedik xizmat, logopediya shaxobchasi, nutq kamchiligi, fonetik, motorika.

**Аннотация:** В данной статье с целью улучшения работы логопедов в общеобразовательных школах используются педагогические рекомендации в процессе логопеда, эффективность педагогических рекомендаций в практике логопедов, учителей, логопедов в их работе для достижения ожидаемые результаты об эффективности их работы.

**Ключевые слова:** логопедическая услуга, логопедическое отделение, дефекты речи, фонетика, моторика.

**Abstract:** In this article, in order to improve the work of speech therapy clinics in secondary schools, pedagogical recommendations used in the process of speech therapy, the effectiveness of pedagogical recommendations in the practice of speech therapists, teachers, speech pathologists to achieve the expected results, as well as parents' cooperation. About the effectiveness of their work.

**Keywords:** speech therapy service, speech therapy outlet, speech impediment, phonetics, motor skills.

Umumta'lismaktablari tafsil oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarda uchraydigan o'g'zaki va yozma nutq nuqsonlari kelib chiqishi sababli, ulardag'i turli orqada qolish holatlarini vaqtida bartaraf etib, bu o'quvchilar ham ta'limni yaxshi o'zlashtirib borishini ta'minlash maqsadida soni 4 taga yani 25 ta sinf komplektini hisobgz olib umumta'lismaktablarni qoshida tashkil etilgan logopediya shaxobchalarini ishini yanada takomillashtirish uchun logopedik ish jarayonida qo'llanilib samaradorlikka erishilgan pedagogik tavsiyalarni amlada o'qituvchi logopedlar, o'qituvchilar, defektologlar o'z faoliyatlarida qo'llaganda kutilgan kutilgan natijalarga erishiladi. Logopedik ish jarayoni bo'lganlgich

sinflaridan pedagogik tavsiyalarni qo'llash uchun quyidagi ish tartibi taqdim etiladi.

Olib boriladigan ish yo'naliishlari.

1. Nutqni tovush tomonidan rivojlantirish.

Fonematik jarayonlar va so'zning bo'g'in tovush tarkibini tahlil qilish malakalarini rivojlantirish asosida so'zning tovush tarkibi haqida to'laqonli tasavvurlarni shakllantirish. Talaffuz kamchiliklarini tuzatib borish (korreksiya).

2. Lug'at boyligi va nutqning grammatik qurilishini rivojlantirish:

- bolalar lug'atida mavjud so'zlarning ma'nosini aniqlash va lug'at boyligini turli gap bo'laklariga oid yangi so'zlar bilan boyitish, bolalarda so'z hosil qilishning turli usullarini faol qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish;

- amalda qo'llanuvchi sintaktik tuzilmalarning ahamiyatini aniqlash; so'z birikmalarini, gapda so'zlarning bog'lanishini, turli sintaktik tuzilmali gap shakllarini o'zlashtirish vositasida nutqni grammatik jihatdan boyitish.

3. Bog'langan nutqni shakllantirish:

- bog'langan nutq vositasida fikrni bayon qilish malakalarini rivojlantirish; fikrni ma'no jihatdan dasturlash;

-mantiqiy zanjir hosil qilish (bog'langanlik, izchilik); bog'langan nutq vositasida fikrni bayon qilish jarayonida fikrni aniq va to'liq shakllantirish; muloqot maqsadiga muvofiq nutq vositalarini tanlash (isbot, muhokama, matn mazmuni bayoni, syujetli rasmlar).

4. Ta'limga dastlabki ruhiy tayyorgarlik holatini rivojlantirish va takomillashtirish:

-diqqatning turg'unligi;

-kuzatuvchanlik (ayniqsa, nutq faoliyatiga nisbatan);

-yodda saqlab qolish qobilyatlari;

-bir faoliyatdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati;

-o'z-o'zini nazorat qilish malaka va usullari;

-bilish faoliyatining faolligi;

-muloqot va xulq-atvor erkinligi.

5. To'laqonli ta'limiy ko'nikmalarni shakllantirish:

-bajariladigan ishni rejalshtirish; (o'quv vazifasini qabul qilish; materialni faol anglash; o'quv materiali ichidan asosiy qismini ajrata olish; ta'limiy maqsadga erishishning usul va vositalarini aniqlab olish);

-o'z faoliyatini nazorat (namunalar bo'yicha ishlashdan o'zini nazorat qilishning maxsus usullaridan foydalanishgacha);

-muayyan sur'atda ishlash (tez va to'g'ri yozish, hisoblash; tahlil qilish, taqqoslash, solishtirish va hokazo)

-bilimlarni yangi, notanish sharoitlarda qo'llash;

-o'z faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholash.

6. Ta'lim olishga kommunikativ tayyorgarlik holatini rivojlantirish va takomillashtirish.

-o'qituvchi-logopedni diqqat bilan tinglash va anglash ko'nikmasi: diqqatni bolmasdan, o'z faoliyatini logopedning ko'rsatmalariga yo'naltirgan holatda bo'lish (ya'ni o'quvchi holatida);

-verbal shaklda qo'yilgan o'quv vazifasini qabul qilish va tushunish ko'nikmasi;

-o'quv vazifasini (ko'rsatmalar asosida) aniq idrok qilish, ushlab turish va diqqat bilan bajarish maqsadida muloqotning verbal vositalarini erkin qo'llay olish ko'nikmalari;

-o'quv faoliyatini maqsadga yo'naltirilgan va izchil ravishda amalga oshirish (topshiriq va ko'rsatmaga muvofiq) va o'qituvchi-logopedning nazorati va baholashiga to'g'ri munosabatda bo'lish.

7. O'quv faoliyatiga muvofiq kommunikativ ko'nikma va malakalarini shakllantirish:

- savollarga ko'rsatma va vazifalarga muvofiq tarzda javob berish;

- o'quv faoliyati davomida savollarga o'zlashtirilgan atamalarni to'g'ri qo'llagan holda javob berish;

- o'quv ishlari davomida va yakunida savollarga 2-3 ta gap bilan javob berish (bog'langan nutq yordamida fikrni bayon qilishga o'rgatish);

- o'quv ishlari davomi va yakunida bog'langan kengaytirilgan nutq orqali fikrni bayon qilishga tayyorgarlikda yo'riqnomalar (sxemalar)dan foydalanish;

-o'zlashtirilgan o'quv atamalarini bog'langan nutq orqali fikrni bayon qilishda qo'llash;

-o'qituvchi-logoped yoki guruhdosh o'rtog'iga biron narsani tushuntirib berishini so'rab murojaat qilish;

-yangi atamalarni qo'llagan holda ko'rsatma va o'quv topshirig'ini tushuntirib berish;

-o'quv topshirig'ini bajarish bosqichlari, mashg'ulot yakunlari haqida to'liq hisobot berish;

- o'quv topshirig'ini jamoa bilan bajarishda vazifani aniqlab aytib berish;

-o'rtoqlari orasida differensial so'rovnama o'tkazish va javoblarni baholash (o'quv ishi rahbari sifatida);

-muloqotda nutq odobi qoidalariga rioya qilish (murojaat, iltimos, dialog, "Rahmat", "Iltimos", "Marhamat");

-ijodiy yondoshgan holda og'zaki bog'langan nutq vositasida fikrni bayon qilish (ijodiy tasavvur).

Barcha pedagogik-davolash majmuini duduqlanuvchilarga ta'sir etish hususiyatiga qarab shartli ravishda ikkita guruhga ajratish mumkin: davolash-sog'lomlashtirish va pedagogik-tuzatish.

Logoped olib boradigan pedagogik-tuzatish ishlari quyidagi asosiy vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi; duduqlanuvchi nutqidagi nuqsonlar (noto'g'ri nutqni qayta tarbiyalash) va ruhiy noto'kis jihatlarini bartaraf etish.

Davolash-sog'lomlashtirish ishlari quyidagilar kiradi: davolash uchun qulay sharoit yaratish, kun tartibi va ovqatlanish tartibini tashkil etish, chiniqtiruvchi tadbirilar, davolovchi jismoniy tarbiya, dori-darmon orqali davolash va psixotierapiya.

Bolada yaxshi kayfiyat, tetiklik, o'zining tuzalib ketishiga nisbatan ishonch uyg'otish muhimdir. Faoliyat turlarini muntazam ravishda almashtirib turish, muayyan hayot tarzi ham alohida ahamiyat kasb etadi, zero, bu usullar

duduqlanuvchi bola asab sistemasining yuqori bo'limlari va barcha a'zolarini ishini normallashtiradi va yengillashtiradi.

Davolovchi jismoniy tarbiya va jismoniy mashg'ulotlar mushak sistemasini rivojlantirib, muhim hayotiy a'zolar – o'pka va yurak ishini takomillashtiradi, moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Ular bolaning quvvati va ma'naviy ruhining mustahkamlanishini ta'minlaydi, izchil va aniq harakatlarni rivojlantiradi, harakatdagi cheklanganlik yoki aksincha to'xtab qolishda xalos bo'lishga yordam beradi, intizomlilik va batartiblikning tarbiyalanishini ta'minlaydi.

Bularning barchasi duduqlanuvchi bola nutq a'zolarining yaxshi ishlashi uchun zarur shart - sharoitlar bo'lib hisoblanadi va unda to'g'ri nutq ko'nikmalarini hosil qilishga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy mashqlar duduqlanadigan bolalar uchun davolash ahamiyatini kasb etadi.

Psixoterapiya duduqlanishni davolash ko'lamida muhim o'rinni egallaydi. Psixotierapiyaning asosiy vazifasi - duduqlanuvchining ruhini sog'lomlashtirishdan iborat bo'lib, u 1) mukammal shaxsni kamol toptirish; 2) o'z nuqsoni va sotsial muhitga nisbatan sog'lom qarashlarni tarbiyalash; 3) kichik sotsial muhitga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

To'g'ri psixotierapiya kichik yoshli bolalar uchun turli xil o'yin usullari, rangli didaktik materiallar, mehnat, musiqa, ritmika va boshqalardan foydalanishda ifodalanadi. Psixotierapiyaning bunday shakllari ruhiy profilaktika va ruhiy gigiyena bilan uzviy bog'lanadi. Katta yoshli o'quvchilar uchun psixotierapiyaning asosiy usullaridan keng foydalanish muhimdir.

Mashg'ulotlar umumiy va nutq harakatlarini rivojlantirishni, nafas olish hamda nutq sur'ati va ohangini mo'tadillashtirishni, nutqiy muomalani faollashtirishni, zarur holatlarda diqqat bilan eshitish va fonematik idrok etishni rivojlantirishni, tovushlarni talaffuz etishdagi nuqsonlarni tuzatishni, sust va faol lug'at boyligini kengaytirishni, jumلالарни grammatic jihatdan tartibga solishni takomillashtirishni nazarda tutadi. Duduqlanuvchilar bilan mashg'ulotlar paytida xulq-atvordagi ruhiy og'ishlar bartaraf etiladi (o'quvchilarda, o'smirlarda), nuqsonga nisbatan to'g'ri munosabat hosil qilinadi, aqliy qobiliyat, odob va ahloq to'g'risidagi tasavvurlar rivojlantiriladi, har tomonlama rivojlangan shaxs tarkib toptiriladi.

Nafas olish nutq jarayonida mashq qilib mustahkamlanadi: talaffuz paytida bir marta nafas chiqarilishi orqali dastlab qisqa gaplar, keyin so'zlar sonini sekin-asta ko'paytira borib gaplar aytildi. Uzun jumلالарни logik to'xtamlar bilan qismalarga bo'lib talaffuz etish malakasi hosil qilinadi, bunda tinish belgilari ishtirop etadi yoki aksincha. Shundan so'ng nasr yoki nazm matnlarini o'qishga o'tiladi.

Harakatli, musiqiy - harakatli, musiqiy - nutqli, ritmik, musiqa jo'rligisiz nutqli, harakatli - nutqli mashq va o'yinlar prosodiyani - duduqlanuvchining harakat sohasini normallashtiradi, bu esa, o'z navbatida, uning muomalaga, suhbat ishtiropchisiga, atrof-muhitga va o'z nutqining buzilishiga nisbatan munosabatini qayta qurishga yordam beradi.

Duduqlanuvchilarning sotsial moslashuvi borasidagi vazifalar (o'smirlar va kattalar masalasida tiklanish ham bo'lishi mumkin) pedagogik va ruhiy ta'sir etish

majmui yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda oila muhim va hal qiluvchi o'rinni tutadi. Bolaning oilaga va ota-onaga nisbatan his-hayajonli bog'lanishining muhim darjasini jiddiy ruhiy omil sanaladi, logoped ota-onalar bilan maslahat berish va metodik ishlari olib borishda buni hisobga oladi. Oila o'zining tabiiy ruhiy-pedagogik tiklovchi ta'siroti bilan duduqlanuvchi shaxsini qayta tarbiyalash va uning to'g'ri nutqini mustahkamlashda birlamchi va kuchli asos sanaladi.

Logopedik ish jarayonida yana bir tavsiyalardan biri bu ota onalar bilan hamkorlik ishlari olib boriladi.

Hozirgi davrda ota-onalar bilan pedagoglar hamkorligiga alohida e'tibor berilmoqda va bu ta'lif tarbiya ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Ota – onalar bilan ishlashda o'qituvchi – logopedlar an'anaviy va noan'anaviy usullar : anketalashtirish, maslahat – muloqat, ochiq mashg'ulotlardan keng foydalanadi. O'z navbatida ota – onalar farzandlari ishlari bilan tanishib, ularagini muammo va yutuqlardan tegishli xulosa chiqaradilar. O'qituvchi – logoped har bir bola topshiriqlarni qanday bajarganligini ota – onalarga tushuntiradi. Individual daftarlari orqali bolalar qanday natijalarga erishgani, qaysi tovushni hosil qilolmagani, nimada qiynalishi haqida ma'lumot berib boriladi. Shu Bilan bir qatorda, ota – onalar bolalari bilan topshiriqni qayta ko'rib chiqishlari yoki bajarishlari uchun imkoniyat yaratiladi.

Ota – onalar bilan hamkorlikda "Bir kunlik xat kuni"ni o'tkazish ayniqsa ijobiy natijalar beradi. Bu tadbir jarayonida bolalar qiyinadigan shkaflar ichida cho'ntakchalar qo'yilib, ichiga muhim hisoblangan ma'lumotlar yoziladi. Masalan, "Siz Bilan birga biz ham xursandmiz, chunki Alisher talaffuzida "r" tovushi hosil bo'ldi yoki "Alisherga so'zlashuv payti doimo R tovushini aytishni yodiga solib turing. Rahmat! ". "Madina hozircha tugmasini o'zi o'tkaza olmaydi, poyabzal bog'ichini bog'lay olmaydi. Uyda u Bilan mashq qiling, unga yordam bering, ishonamizki, hammasi yaxshi bo'ladi".

Ota – onalar bilan muomala qilganda, ular kayfiyatini hisobga olish benihoya muhimdir.

Bundan tashqari, ochiq mashg'ulotlar o'tkazish logoped faoliyati bilan tanishtiribgina qolmay, balki har bir ota-ona o'z bolasini tengqurlari bilan taqqoslaydi, unga o'z bahosini qo'yadi va undagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini qidiradi.

Hamkorlikdagi ishlarni mashg'ulotlardan tashqari uyda ham bajarishlari uchun quyidagilar tavsiya etiladi.

### O'yin «Razvedkachilar».

**Maqsad:** Bolalarni zarur tovushini so'zlarda to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

**O'yining borishi:** Tarbiyachi bolalarga rasmlarni ko'rsatadi, bolalar rasmlarning nomlarini aytadilar. So'ngra tarbiyachi razvedkachilarni tanlaydi. Razvedkachilar xonadan chiqib turadilar. Tarbiyachi qolgan bolalar bilan rasmlarni xonaning turli burchaklariga yashirib chiqadi. Razvedkachilar kelib, rasm yashirilgan joyni qidiradilar va topib olgan rasmlarni bolalarga ko'rsatib, unin gnomini aytadilar. So'ngra bolalar o'rinni almashadilar.

**Metodik ko`rsatma:** Narsalarning nomini aytayotganda zarur tovushini aniq talaffuz etishlari kerak. Zarur tovushini cho`zib talaffuz etmaslik lozim. Aks holda tovush buzilib eshitiladi.

“Ochiq eshik kunlari”da esa ota-onalar nafaqat mashg’ulotlarni kuzatadilar, ayni paytda pedagog, o’qituvchi-logoped, vrach-nevropatolog va hamshiralar bilan uchrashadilar hamda ulardan qimmatli yo`l-yo`riqlar, maslahatlar oladilar.

### “Sirli qatorcha”

**Maqsad:** o’quvchilar diqqatini rivojlantirish va nutqni o’stirish.

Bu o’yinda iloji boricha ko’proq o’quvchilar ishtirok etadi. Ishtirokchilar soni 7-8 nafardan kam bo’lmasligi shart. Boshlovchi xonadan chiqib turadi. Qolganlar esa xammaga tanish bo’lgan she’rdan bir qatorini tanlashadi. Keyin shu qatordagi so’zlarni bo’lib olishadi va qaysi so’zdan keyin qaysi so’z kelsa, o’sha tartibda turib olishadi. Boshlovchi xonaga qaytib kiradi va ishtirokchilarga har xil savollar beradi. Ishtirokchilar esa savollarga javoban ular tanlagan so’zni javob qilib qaytarishadi. Boshlovchi hammani so’zini bilgandan so’ng bu so’zlar qaysi she’rga tegishlilagini topishi kerak. Qaysi bolaning aytgan so’zi she’rni topishga yordam bergen bo’lsa, o’sha bola boshlovchilik qiladi.

### “Oxirgi harfdan so’z yasa”

**Maqsad:** Bola diqqatini rivojlantirish, so’z boyligini oshirish, tafakkur doirasini kengaytirish.

Boshlovchi biron so’z aytadi. Masalan , “Dutor” so’zini o’rtaga tashlaydi. Birichi ishtirokchi aytilgan so’zning oxirgi harfi bilan boshlanuvchi so’z topishi kerak. Masalan, “Rediska”. O’yin shu tariqa davom etadi.

So’z topa olmagan o’quvchi o’yindan chiqadi.

### O`yinning 2 – turi

O`yinning ikkinchi turi ham birinchi turga o`xshab, bolalar Bilan bigalikda avval gap tuziladi, so`ngra bolalarga gapning so’zlarini bo’lib beriladi. “Jonli so’zlar” o’z so’zlarini bilib olganlaridan so’ng tarbiyachi

“jonli so’zlarga” murojaat qiladi:

- Hozir siz o’z joylaringizni aniqlab, ketma – ket turgan holda aytilgan gapni “yozasiz”, qolgan bolalar sizlarni kuzatib turadilar, - deydi. Bolalar tezda ketma – ket turib aytilgan gapni yozishlari kerak, so`ngra har bir bola o’z so’zini ovoz Bilan aytib, gap hosil qiladilar.

O’yin shu tarzda bolalarni va gapni almashtirish orqali davom ettiriladi. O’yinda o’z qatorini adashtirmay to’g’ri topib turgan holda so’zni aniq talaffuz qilgan bola g’olib sanaladi va rag’batlantiriladi.

### “Sehrli qalamchalar” o`yini

O’yin uchun bir necha rangli qalamchalar va ular yordamida chizilgan turli narsa va buyumlar rasmi kerak bo’lib, ular doskaning o’rtasiga joylashtiriladi. O`yinni yakka holda yoki guruh bilan o’ynash mumkin.

Tarbiyachi bolalar diqqatini doskaga qo`yilgan jihozga qaratib :

- Bolalar, siz ko`rayotgan mana bu qalamchalar oddiy qalamchalar emas, balki ular “sehrli” qalamchalardir. Ular mana bu rasmni bir zumda chiza oladilar. Keling, hozir ular nimalarning rasmini chizganliklarini aniqlaymiz.

Tarbiyachi birin – ketin ko`rsatadi, bolalar esa ularni nomlaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini maqsadda ko`zlagan bir tovushlarning (masalan s, b, rva h.k.) o`rnini so`z boshida, o`rtasida, oxirida) aniqlashga qaratadi. Tarbiyachi:

- Bolalar, endi har bir qalamcha qaysi rasmni chizganini aniqlaymiz.

Hozir har biringiz o`zingizga yoqqan rangdagi qalamchani tanlab olasiz. Qalamchangiz qaysi rasmni chizganini ular qoldirgan izdan yurib aniqlaysiz va nomlaysiz. Agar siz rasmda nima aks ettirilganini to`g`ri topsangiz uni aniq, ravon talaffuz qilsangiz rasmni o`zingizga olishingiz mumkin. Shu tartibda bolalar qalamchalar chizgan rasmlarni aniqlaydilar. O`yin doskadagi jihozni almashtirish orqali davom ettirilishi mumkin. O`yinda kim ko`p rasm to`play olsa, o`sha bola g`olib sanaladi.

### **O`yinning 2 - turi**

O`yinning 2 – turi ikki farqlanayotgan tovush ustida o`tkaziladi (b-p, s-sh, r-l, a-o, d-t va h.k). Masalan, q-g . Mazkur o`yinning 1-turi uchun zarur jihozlar qisman o`zgartiriladi. Jumladan, rasmlar ikki farqlanayotgan tovushga mos ravishda tayyorlanib, ularning yoniga kerakli harfni yozish uchun bo`sh katakcha qo`yiladi.

Tarbiyachi bolalarga o`yin shartini tushuntiradi:

- Bolalar, rasmdagi qalamchalardan birini o`zingizga tanlang. Qalamchalarining chizgan rasmini aniqlashda ular qoldirgan izlar bizga yordam beradi. Ana shu izlardan yurib qalamchalarining rasmini aniqlaysiz va uni nomlaysiz. Bizga kerakli bo`lgan “g” yoki “q” tovushini ajratib, aniqlab, uni bo`sh katakchaga yozasiz. Agar siz shu vazifani to`g`ri bajarsangiz rasmni o`zingizga olasiz.

O`yin rasmlarni almashtirish orqali davom ettirilishi mumkin. O`yinning bu turida ham ko`p rasm yig`ib, topshiriqni to`g`ri bajargan bola g`olib sanaladi.

### **“Mushuk va sichqon” o`yini**

**O`yinning maqsadi:** Bog`langan nutqda “sh” tovushini mustahkamlash.

**O`yinning borishi:** Stulchada bir bola ko`zini yumib o`tiradi. U mushuk rolini bajaradi. Qolgan bolalar sichqonlar rolini bajaradilar. Sichqonlar sekin yurib mushukni oldiga keladilar va barmoqlar yordamida senimi, shoshmay tur! ifodasini qo`llab quydagi she`rni aytishadi.

Sichqonboylar jim bo`ling, Jim bo`ling

Baroqvoy qilig`idan

Ogoh bo`ling, ogoh bo`ling!

SHu so`zlar aytilgandan so`ng mushuk uyg`onib ketadi va miyov deb sichqonni quvlaydi. Sichqonlarning uyi chiziqcha tortib belgilab qo`yiladi va u yerga mushuk kira olmaydi. O`yin hamma sichqonlar ushlanmaguncha davom etishi mumkin. Oxirida qolgan bola yangi o`yinda boshlovchi bo`ladi. Hamma ushlangan sichqonlar “sh”tovushi ishtirokida 2-3 ta so`z aytishlari kerak.

### **“O`rgimchak turidagi pashshalar» o`yini**

**O`yinning maqsadi:** “J” tovushini to`g`ri talaffuz ettirishga erishish.

**O`yinning borishi:** Bolalarning bir qismi o`rgimchak turini tasvirlab, qo`llarini tushirgan holda doira bo`lib turib oladilar. Bolalarning qolgan qismi

pashshalar bo'lib, "j-j-j" degan holda, doira ichida va atrofida uchib yuradilar. O'rgimchak to'riga ilingan bola kuchliroq ohangda "J" tovushini talaffuz etadi. To'rga tushmagan bola g'olib bo'ladi.

### **"Sehrli qopcha" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** "S" tovushini "SH" tovushidan farqlashga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Qopchaga sabzi, mushuk, shar, soat, soyabon, eshik, nasos, idish rasmlari solinadi.

Bolalar 2 guruhga bo'linadilar. Logoped bir tomonga sichqon rasmini, ikkinchi tomonga mushuk rasmini ilib qo'yadi. Guruhlardagi bolalar bittadan navbatma-navbat chiqib, qolgan rasmni olib, unga qaysi tovush ishtirok etganiga qarab o'z joylariga turadilar, ya'ni "S" tovushi ishtirok etgan rasmni olsa, sichqon tomonga "sh" tovushi ishtirok etgan rasmni olsa, mushuk tomonga o'tadilar. Hamma olib bo'lgach, har bir bola o'z rasmini ko'rsatib nomini aytadi. Qolgan bolalar esa o'rtog'i joyini to'g'ri tanlay olganligi yoki yuqligini tekshirib boradilar. Logoped esa bolalar "s" va "sh" tovushlarini talaffuz etganlarida artikulyatsion apparat holati qanday bo'lishini bolalarga tushuntiradi.

### **"Top-chi, menda qaysi tovush ?" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** Z-J tovushlarini bir-biridan farqlashga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** O'yin boshqaruvchisi tayinlanadi. Boshqaruvchi eshikdan tashqariga chiqib turadi, qolgan bolalar esa nomida J tovushi bor bo'lgan so'z o'ylab topadilar. O'yin boshqaruvchi qaytib kelib, har qaysi bolaning yoniga boradi, u kimning yoniga borsa, shu bola o'ylagan so'zni aytadi. Agarda boshqaruvchi aytilgan so'zlarda J tovushini eshitsa, "j-j-j" deb, agar Z tovushini eshitsa, "z-z-z", deb talaffuz etadi. Logoped va bolalar boshlovchi tovushlarni to'g'ri talaffuz etishini kuzatib boradilar. So'ngra logoped bolalarga rasmlar tarqatib chiqadi. Har bir bola navbatma-navbat chiqib, rasmni bolalarga ko'rsatadi va uning nomini bildiruvchi so'zda Z tovushi bo'lsa, uni chivin rasm tasvirlangan rasm polotnosi cho'ntagiga solib qo'yadi, agarda J tovushi bo'lsa qo'ng'iz rasm tasvirlangan rasm polotnosi cho'ntagiga solib qo'yadi. Mashg'ulotning oxirida logoped bolalarga bir necha so'zlarni aytadi va uni takrorlashlarini taklif qiladi: jigar, zanjir, zebra, jazo, qo'ng'iz, g'ijjak. Xar bir so'z aniq va bo'g'lnlarga bo'lib talaffuz etilishi maqsadga uvofiq.

Sonor tovushlarni nutqqa qo'yish, mustahkamlash va farqlashga oid o'yinlar

Bolalar uchun artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan tovushlardan yana biri bu sonor (r, l) tovushlari hisoblanadi. Bu tovushlarning aniq talaffuziga ba'zan taqlid usuli orqali ham erishish mumkin.

### **"Otlar" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** "R" tovushini nutqda hosil qilish.

**O'yinning borishi:** Bolalar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi gurux bolalari ot xaydovchilar, ikkinchi guruh bolalari esa otlarga bo'linadilar. Otlarni tasvirlovchi bolalar ikkitadan bo'lib qo'l ushlashib turadilar. Ot xaydovchilar ketdik deb buyruq berganda ot roldagi bolalar otlardek "taq tuq" deb yuradilar. Logopedning bo'yrug'iga binoan xaydovchilar otlarni "dr" deb to'xtatadilar. Ot

rolidagi bolalar yurishdan to'xtaydilar. Bunda logoped bolalarning aniq talaffuz etishini kuzatib boradi. So'ngra bolalar rollarini almashadilar. Logoped bolalarni "r" tovushini to'g'ri talaffuz etishga o'rgatib boradi. "R" tovushini talaffuz etganda til yuqorigi tishlar orqasiga ko'tarilgan bo'ladi, til uchi tebranish (vibratsiya) kerakligi bolalarga tushuntirildadi.

### **"Qarg'alar" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** Bolalarni "R" tovushini nutqda to'g'ri talaffuz etishlariga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Bolalar uch guruhga bo'linadilar. Birinchi guruh bolalari archalarni tasvirlab qo'llarni pastga tushirgan holda doira o'rtasida turadilar. Ikkinci guruh bolalari: qarg'alar bo'lib doira ichiga sakrab-sakrab kirishadi va "qar-qar-qar..." deb qag'illashadi. Uchinchi gurux bolalari esa kuchukchalar rolini o'ynaydilar. Logopedning o'yinimiz boshlandi degan ko'rsatmasidan so'ng archalar ko'tariladi, archalar orasidan qarg'alar "qar-qar" deb uchib kelishadi. Shu payt o'rmondan kuchuklar "irrr-irrr" deb yugurib qarg'alarni ushlarraqchi bo'ladilar. Qarg'alar esa "qar-qar" deb uchib ketadilar. Ushlangan qarg'alar itlar bilan birga qaytishadi va maxsus joyga kelib o'tirishadi. O'yin to ikki-uchta chaqqon qarg'a kelib ushlangan qarg'alarmi qutqarmaguncha davom etadi. So'ngra bolalar rollarni almashadilar. O'yin yana davom etadi. Logoped o'yin davomida bolalar "r" tovushini aniq talaffuz etishlari, "r" tovushini talaffuz etganda til uchining tebranishini bolalarga tushuntirib boradi.

### **"Budilnik" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** "R" tovushini nutqda xosil qilish.

**O'yinning borishi:** Logoped bolalarga stulchalarga o'tirib olishlarini aytadi. Bitta bola logopedning yonida qoladi. Logoped bolalarga murojaat etadi: Bolalar hammamiz tushlik qilib bo'ldik. Endi hammamiz uxbaymiz. Hammamiz faqat budilnik jiringlaganda turamiz. Bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar. Bir necha vaqt o'tgandan so'ng logopedning ko'rsatmasiga asosan budilnik rolini bajargan bola yurib budilnik ovoziga taqlid qiladi "dr-r-r-r" va bolalarni uyg'otadi. O'yin shu tariqa davom etadi. So'ngra bolalar o'zaro rollarni almashadilar. Logoped bolalarning r-r-r tovushini to'g'ri talaffuz etishini kuzatib boradi.

### **"Rubob chalamiz" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** Bolalarning "L" tovushini to'g'ri talaffuz etishlariga erishish.

**O'yinning borishi:** Logoped bolalarga "Hozir sizlar orkestr bo'lasizlar. Orkestrda ko'p musiqa asboblari chalinadi. Sizlar rubob chalasizlar", deb rubobni qanday ushlab chalish kerakligini ko'rsatadi (chap qo'li bilan huddi rubobning pardasini ushlayotgandek, o'ng qo'li bilan esa torni chertayotgandek harakat qilib "la-la-la", deb aytadi). Logopedning ishorasi bilan hamma bolalar rubob chaladilar va "l-l, la- la" tavshlarini talaffuz etadilar. L tovushining to'g'ri artikulyatsiyasi logoped tomonidan kuzatib boriladi.

### **"O'z rasmning top" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** "R" - "L" tovushlarini farqlashga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Logoped bolalarga "r" va "l" tovushi bor rasmlarni olib

tartib bilan qo'yib chiqadi. Logoped bolalarni 2-guruuhga bo'ladi. 1- uruh boalari "r" tovushi bor bo'lgan rasmlarni oladi, 2-guruh bolalari esa "l" tovushi bor bo'lgan rasmlarni oladi. Logopedni ko'rsatmasi bilan har bir guruhdan bittadan bola o'z tovushiga ta'lluqli bo'lgan rasmni oladi. So'ngra o'z guruhi oldiga kelib, birinchi turgan bolani qo'liga sekin turtadi va bolalarning orqasiga borib turadi. Hamma bolalar rasmni olib bo'lganlaridan keyin stulga o'tirishadi. Har bir bola o'z rasmini ko'rsatib nomini aytadi. Masalan: ruchka, raketa, lola, stol, stul, anor, ro'mol olmoxon, gilos, gul, olma, xo'roz, tarvuz, karam, sigir. Qolgan bolalar esa o'rtog'i rasmni to'g'ri olganligi yoki yo'qligini tekshirib boradilar. Bolalar rasmni olganlaridan so'ng uni nomlab, bo'g'lnlarga ajratadilar va "r" yoki "l" tovushlari so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelganini aytadilar.

Til orqa tovushlarni nutqga qo'yish, mustahkamlash va farqlashga oid o'yinlar

Artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo'lgan tovushlarningqolgan turiga til orqa (k,g,x) tovushlari kiradi. Til orqa tovushlarining aniq talaffuzini hosil qilishda, asosan mexanik usuldan keng foydalaniladi. Bu tovushlarni hosil qilishda taqlid usulidan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Quyida keltirilgan o'yinlar taqlid qilish usuli orqali til tovushlaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

### **"Kak-ku" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** "K" tovushini aniq va to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Logoped bolalarga murojaat etib shunday deydi: "Esingizdamli bolalar, biz sizlar bilan o'rmonga sayrga borgan edik.

Bizlar yo'lida ketayotib, katta poliz yonidan chiqib qoldik Qarasak, chumchuqlar polizdagи kungaboqarlarni cho'qishyapti, ularni bolalar haydab yuborishdi. Sizlar chumchuqlarni haydab yuborgan edingiz?" ("kisht-kisht"). Biz o'rmonga yetib bordik. U yer juda ham chiroyli edi, gullar tera boshladik. Birdaniga kakku sayray boshladi: "ka-ku, ka-ku...". Kakku qanday sayraydi? (ka-ka-ku). Ko'p gullar terib orqamizga qaytdik. Ariq bo'yidan o'tdik. Ariq bo'yida qurbaqa chiroyli qurillayotgan edi. Qurbaqa qanday qurillaydi? (kva-kva-kva). Tovushlarga taqlid qilishda K tovushini aniq talaffuz etish lozim. K tovushini ovoz kuchi bilan ajiratish kerak.

### **"Telefon" o'yini**

**O'yinning maqsadi:** Bolalarni "G" tovushi bilan keladigan so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Bolalar stulchalarda bir qator bo'lib o'tirishadi. Logoped birinchi bo'lib o'tirgan bolaga so'zni pichirlab

aytadi. U ham yonidagi bolaga pichirlab shu so'zni aytadi. Shu tariqa, aytilgan so'zni bir-birlariga pichirlab aytadilar. So'ngra so'zni birinchi bo'lib aytgan bola qatorning oxiriga borib o'tiradi. Bola oxirgi so'zni aytib bo'lganlaridan keyin ularga logoped rasm bo'yicha kichkina gap tuzishni taklif etishi mumkin. "Telefon" o'yinini o'ynaganda bolalar so'zni bir-biriga pichirlab, aniq aytishlari lozim, aks holda so'z keyingi bolalarga tushunarsiz bo'lishi mumkin.

## **“Kim mexmonga keldi” o’yini**

**O’yinning maqsadi:** “K-G ” tovushlarini farqlash.

**O’yinning borishi:** Bolalar bir qator bo’lib o’tiradilar. Logoped bolalarga murojaat qiladi. Bolalar bugun bizning bog’chamizga qushlar, parrandalar mehmonga kelishibdi. Biz ularni aniqlashimiz kerak. Logoped bolalarga rasmlarni ko’rsatadi. Bolalar esa rasmdagi qush yoki parrandaning ovoziga taqlid qiladilar. Logoped: Qaranglar bolalar qushlar uchib kelishdi-deydi va rasmlarni ko’rsatadi. Bolalar rasmga qarab “kak-ku, kak-ku” “gu-gu-gu” deb ovoz chiqaradilar. So’ng logoped qurbaqaning rasmini ko’rsatadi. Bolalar “kva-kva-kva” deb ovoz chiqaradilar. Logoped g’oz, xo’roz, tovuq rasmini ko’rsatadi. Bolalar ularning ovozlariga taqlid qiladilar. O’yin davomida bolalar guruh bo’lib javob beradilar. So’ngra logoped har bir bolaga alohida rasmlarni ko’rsatib to’g’ri va aniq talaffuz etishni aniqlaydi.

Duduqlanishni bartaraf etishda nafasni rivojlantirishga qaratilgan o’yinlar.

M.F. Bruns fikricha o’yin orqali duduqlanadigan bolani xarakterishakllanadi, uni intizomi, jamoaga munosib tafakkuri faol nutq faoliyati shakllanadi. O’yinda emotsiyal tomoni bolalarda qiziqish uyg’otadi va logopedga bolaga kerakli vaqtida ta’sir ko’rsatish uchun imkoniyat beradi. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda to’g’ri nutqiy nafasni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Muzaffarova, X. (2020). Maktabgacha ta’lim muassasalarida mediata’limni joriy etish.
- 2.Muzaffarova, X. (2020). Intellektida nuqsoni bo’lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari.
- 3.Akramova, X. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyasi.
4. Muzaffarova, X. (2020). ДИДАКТИК ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ – ПЕДАГОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/7483](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7483)
- 5.Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ БОЛАЛАР БИЛАН КОРРЕКЦИОН-РИВОЖЛАНТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР: UZ AKADEMIYA. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/7485](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7485)
- 6.Muzaffarova, X. (2020). Oligofrenopedagogikada foydalaniladigan tadqiqot metodlari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6710](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6710)
- 7.Muzaffarova, X. (2020). Ўзбекистонда баклавр педагогларни тайёрлашнинг инновацион моделлари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6707](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6707)
- 8.Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta’lim mussasalariga tadbiq etish . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6711](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6711)

- 9.Muzaffarova, X. (2020). THE CORRECTIVE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(94). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/2537](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2537)
- 9.Muzaffarova, X. (2020). DIZARTRIYANI BARTARAF ETISH BO'YICHA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK TA'SIR TIZIMI. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(90). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6306](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6306)
- 10.Muzaffarova, X. (2020). БАДИЙ АДАБИЁТ - БОЛАЛАР НУТҚИНИ РИВОЖЛАНИШИРИШНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(88). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6825](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6825)
11. Muzaffarova, X. (2020). Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan kichik mакtab yoshdagi o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlan Tirishda didaktik o'yinlardan foydalanish . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(81). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6724](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6724)
- 12.Muzaffarova, X. (2020). Maxsus maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xosligi . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(81). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6727](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6727)
- 13.Muzaffarova, X. (2020). ESHITISHIDA NUQSONI BOR O'QUVCHILARIGA ARIFMETIK AMALLARNI BAJARISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(81). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6750](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6750)
- 14.Muzaffarova, X. (2020). Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik - korreksion ishlarni to'g'ri tashkillashtirish usullari. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(80). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6731](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6731)
15. Muzaffarova, X. (2020). Sinfdan va mакtabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalahtirish va ularga bo'lgan talablar . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(80). извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6737](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6737)
- 16.Akramova, X. (2020). Ақли заиф ўкувчиларни компьютер технологиялари асосида меҳнат кўнинмаларини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-9. извлечено от [https://science.iedu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4013](https://science.iedu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013)